



**Xitoy Xalq Respublikasi va O‘zbekiston savdo iqtisodiy
hamkorligini rivojlanish xususiyatlari**

Tohirova Mavjuda Qosimovna

Angren Universiteti Iqtisodiyot
yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xitoy Xalq Respublikasi va O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarini yuksaltirish, rivojlanish bosqichlari hamda istiqbollari tahlil qilishga qaratiladi. Asosiy e’tibor bugungi kunda ikki davlat o‘rtasidagi mahsulotlarni ayirboshlash hajmi, investitsiyalar, transport-logistika infratuzilmasi va “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusining ta’siriga qaratilgan..

Kalit so‘zlar: Xitoy Xalq Respublikasi, O‘zbekiston Respublikasi, savdo-iqtisodiy hamkorlik, investitsiya, “Bir makon, bir yo‘l”.

Abstract: This article focuses on enhancing and analyzing the development stages and prospects of trade and economic relations between the People's Republic of China and the Republic of Uzbekistan. Special attention is given to the current volume of goods exchange between the two countries, investments, transport and logistics infrastructure, and the impact of the "Belt and Road" initiative.

Keywords: People's Republic of China, Republic of Uzbekistan, trade and economic cooperation, investment, Belt and Road Initiative.



Kirish

O‘zbekiston Respublikasining bugungi kundagi va kelajakdagi asosiy rivojlanish yo‘llaridan biri– mintaqaviy va qolaversa dunyoning barcha rivojlangan davlatlari bilan faol hamkorlikni yo‘lga qo‘yishdir. Xitoy Xalq Respublikasi bugungi kunda O‘zbekistonning eng yirik savdo hamkorlaridan biri hisoblanadi. Bizga ma’lumki Xitoy davlatining iqtisodiy salohiyati, texnologik taraqqiyoti jihatidan va tashqi iqtisodiy tashabbuslari O‘zbekiston respublikasi bilan savdo aloqalarini mustahkamlashda muhim omil bo‘lib, xizmat qilmoqda. Bu maqolada ikki davlat o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarning asosiy xususiyatlari, imkoniyat darajasi va muammolari haqida so‘z boradi.


Asosiy qism:

1. Tarixiy asoslar va hozirgi holat

“Buyuk ipak yo‘li” davri II asrdan to XV asrgacha bo‘lgan davrlarni o‘z ichiga oladi. Tarixdan ma’lumki O‘zbekiston hududi “Buyuk ipak yo‘li “ chorrahasidan o‘tgan. Shuning uchun O‘zbekiston va Xitoy davlatlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar bir necha ming yillik tarixga egadir. 1991-yil Xitoy Xalq Respublikasi O‘zbekiston mustaqilligini tan olib, 1992-yil 15 oktabrda Toshkentda XXR elchixonasi, 1995-yil 6 mayda Pekinda O‘zbekiston elchixonasi ochildi. Shu davr davomida O‘zR Prezidenti birinchi prezidenri I. Karimov 4 marta (1992, 1994, 1999, 2001-yil) rasmiy tashrif bilan Xitoyda bo‘ldilar. Ilk bor rasmiy tashrif bilan 1995-yil O‘zbekistonga Xitoy Xalq Respublikasi davlat kengashi boshlig‘i Li Pen kelgan. Xitoy Xalq Respublikasi raisi Szyan Szemin (1996) va uning o‘rnini egallagan Xu Szintao (2004)lar ham rasmiy tashrif bilan O‘zbekistonga keldilar. Xu Szintao Xitoy Xalq Respublikasi raisining o‘rinbosari sifatida 1995-yilda ham O‘zbekistonda bo‘lgan¹. 1992-yil Diplomatika munosabatlari o‘rnatilgach, ikki mamlakat o‘rtasida teng huquqli aloqalar o‘rnatila boshladi. O‘tgan 33-yil davomida ikki davlat o‘rtasida bir necha rasmiy hujjatlar imzolandi. Hozirda O‘zbekiston va Xitoy davlatlari



oʻrtasidagi ikki tomonlama savdo hajmi izchil oshib bormoqda. Oʻtgan 2024-yil yakunlariga koʻra, Xitoy Oʻzbekistonning eng yirik tashqi savdo hamkori boʻldi, ikki tomonlama tovar ayirboshlash hajmi \$14 milliarddan oshdi. Qolaversa, 2025-yilning birinchi choragida Oʻzbekistonga xorijiy sarmoya kiritish boʻyicha ham Xitoy yetakchilikni saqlab qolmoqda.



dzen.uz

Xitoy_Xalq_Respublikasi_munosabatlarUzbekistan,_2006-125

2. Asosiy yoʻnalishlar:

Bugungi iqtisodiy rivojlanish asrida Xitoy va Oʻzbekiston oʻrtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalari faol oʻsish davrini boshdan kechirmoqda, Oʻzbekiston va Xitoy davlatlari oʻrtasidagi asosiy savdo iqtisodiy aloqalar:

Energetika: Xitoy kompaniyalari (masalan, China National Petroleum Corporation) Oʻzbekistondagi neft-gaz konlarini oʻzlashtirish, quyosh va shamol energiyasi loyihalarida (masalan, Navoiy viloyatidagi “Nurnavoii” 1 GW quvvatli quyosh elektr stansiyasi) ishtirok etadi.



Qishloq xo‘jaligi va agro-sanoat: Xitoy investitsiyalari paxta yetishtirish, meva-sabzavot qayta ishlash, irrigatsiya tizimlarini modernizatsiyalashga qaratilgan.

Texnologiya va telekommunikatsiya: Huawei kabi kompaniyalar O‘zbekistonda 5G tarmoqlarini rivojlantirish, aqlli shahar loyihalarida hamkorlik qilmoqda.

Transport va infratuzilma: “Xitoy–Qirg‘iziston–O‘zbekiston” temir yo‘l loyihasi ikki davlat o‘rtasidagi logistikani yengillashtiradi.

Avtosanoat: Xitoyning "Chery", "FAW", "BYD" kabi brendlari O‘zbekistonda avtomobil ishlab chiqaruvchi qo‘shma korxonalar (masalan, "UzAuto Motors" bilan hamkorlik) tashkil etgan.

To‘qimachilik: Xitoy to‘qimachilik kompaniyalari O‘zbekiston paxtasidan foydalangan holda ip va gazlama ishlab chiqarish zavodlarini ochmoqda.

Kimyo va mineral o‘g‘itlar: "Xinjiang Zhongtai Chemical" kabi korxonalar O‘zbekistonda mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarishga sarmoya kiritmoqda.

O‘zbekiston tomonidan Xitoy davlatiga asosan gaz, mis, paxta tolasi kabi mahsulotlarni eksport qiladi, Xitoydan esa mashina, texnika va texnologiya, elektronika, dori-darmon import qilib olinadi. Shu bilan birga Xitoy davlati O‘zbekistonning ayrim sohalarini rivojlantirish maqsadida investitsiyalar ham kiritdi. Infratuzilma loyihalari: Xitoyning "Bir belbog‘, bir yo‘l" tashabbusi (BRI) doirasida O‘zbekistonda transport, energetika va logistika sohalariga katta sarmoyalar kiritilmoqda. Masalan, Toshkent–Buxoro tezyurar temir yo‘li modernizatsiyasi, Farg‘ona vodiysiga alternativ avtomobil yo‘llari qurilishi. “Zarafshon” oltin koni, “Angren” issiqlik elektr stansiyasi, va boshqalar bunga misol bo‘la oladi

3. “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusining o‘rni



Xitoy davlatining tashabbusi bilan ilgari surilgan “Bir makon, bir yo‘l” loyihasi Markaziy Osiyo qolaversa Yevropa mamlakatlari uchun strategik ahamiyatga ega. O‘zbekiston ushbu tashabbusli lohiha doirasida transport yo‘llari, bojxona tizimi, infratuzilmalarda faol ishtirok etib kelmoqda. “Bir makon, bir yo‘l” bu global loyiha hisoblanadi. Bu loyiha 50 yaqin mamlakatlarni o‘z ichiga oladi. Bundan ikki yil oldin 17–18-oktyabr kuni loyihaning 10 yilligi keng nishonlandi.³ Ushbu loyiha 2013-yilning sentyabr oyida Qozog‘istonda bo‘lib o‘tgan davlat rahbarlarining yig‘ilishida Xitoy prezidenti Si Szinpin tomonidan e‘lon qilingan edi. 2014-yildan boshlab loyihani ishga tushishi bilan davlatlar o‘rtasida amaliy harakatlar boshlandi. Bu loyihaning asosiy maqsadi — Xitoyni Janubiy Osiyo va G‘arbiy Yevropa davlatlari bilan bog‘lovchi kommunikatsiya tizimini yaratishdan iborat. Yana bir e‘tiborli jihati shundaki, ushbu loyihaga vaqt o‘tgan sari qiziquvchilar soni ham oshib bormoqda. Xususan, bu lohihaning O‘zbekiston hukumati uchun ham juda katta foydali va yutuqli tomonlari bordir. O‘zbekistonga ko‘plab investitsiyalar kirishi, yangi zamonaviy korxonalar hamda minglab ish o‘rinlari yaratilishi bunga yaqqol misoldir. Ma’lumki, O‘zbekistonga eng yaqin Hind Okeani bo‘lib 1000 km uzoqlikda joylashgan. Xitoy tashabbusi bilan qurilayotgan “Qirg‘iziston- O‘zbekiston- Afg‘oniston” temir yo‘lining qurilishi O‘zbekistonning Janub tomonda Hind okeaniga chiqishni ta’minlaydi. Bu esa yurtimizning boshqa dengizorti davlatlar bilan bevosita savdo – sotiqni yanada rivojlanishiga olib keladi. Xususan, bu iqtisodiyotimizning izchil yuksalishi va yangi loyihalarning ishga tushirilishiga zamin yaratadi.

4. Muammolar va to‘siqlar.

Xitoyning O‘zbekistonga investitsiyalarining asosiy qismi sanoat, texnologiya va energetikaga yo‘naltirilgan;

- Chet ellik investorlar O‘zbekistonda yer sotib ololmaydi;
- Loyihalarda ish o‘rinlarining aksariyatini o‘zbekistonliklar egallaydi;



- Hamkorlik faqat investitsiyalarni jalb qilish emas, balki yangi texnologiyalar va ish o'rinlari yaratishga ham xizmat qiladi.
- Savdo muvozanati Xitoy foydasiga.
- Valyuta konvertatsiyasi, bojxona tartib-qoidolari, logistika muammolari.
- Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligi pastligi.

Xulosa qilib aytganda, Xitoy va O'zbekiston o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar yildan-yilga mustahkamlanib bormoqda. "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi, o'zaro investitsiyalar va infratuzilma loyihalari hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Shu bilan birga, mavjud muammolarni hal qilish orqali ushbu hamkorlikni yanada chuqurlashtirish imkoniyatlari mavjud. Xususan, sanoat kooperatsiyasi, innovatsion texnologiyalar almashinuvi va o'zaro manfaatli savdo sharoitlarini yaratish bu borada muhim ahamiyat kasb etadi.

"Bir makon, bir yo'l" loyihasiga doir tahliliy maqolalar, The Diplomat, 2023.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xitoy_Xalq_Respublikasi_munosabatlarUzbekistan,_2006-125 _Uzbekistan,_2006-125 Xitoy Tashqi savdo vazirligi axborotlari.
2. "Bir makon, bir yo'l" loyihasiga doir tahliliy maqolalar, The Diplomat, 2023.
3. Karimov A. "O'zbekiston tashqi iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlari", TDIU, 2022.
4. Internet ma'lumotlari
5. dzen.uz